



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 09 | pp. 246-252 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

XORAZM VILOYATINI IJTIMOYIY-IQTISODIY INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'LLARI



Salayeva Lobar Ulug'bek qizi

Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda O'zbekiston mintaqalarida innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari hududiy innovatsion tizimlar (MIT) konsepsiyasi asosida tahlil qilingan. Maqolada Xorazm viloyatining innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Xorazmning tarixiy merosi, xalqaro turistik brend sifatidagi salohiyati hamda turizm yig'implari hisobidan infratuzilmani rivojlantirish mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm viloyati, innovatsion, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy tahlil, kompleks rivojlantirish, prognoz.

Аннотация. В статье анализируются процессы инновационного социально-экономического развития регионов Узбекистана на основе концепции территориально-инновационных систем (ТИС). В статье анализируются процессы инновационного социально-экономического развития Хорезмской области. Рассматриваются историческое наследие Хорезма, его потенциал как международного туристического бренда, а также механизмы развития инфраструктуры за счёт доходов от туризма.

Ключевые слова: Хорезмская область, инновационное, социально-экономическое развитие, экономический анализ, комплексное развитие, прогноз.

Abstract. This study analyzes the processes of innovative socio-economic development in the regions of Uzbekistan based on the concept of territorial innovation systems (MIT). The article analyzes the processes of innovative socio-economic development of the Khorezm region. The historical heritage of Khorezm, its potential as an international tourist brand, and the mechanisms for developing infrastructure at the expense of tourism revenues are highlighted.

Keywords: Khorezm region, innovative, socio-economic development, economic analysis, integrated development, forecast.

1. Kirish

Hududlarini barqaror va jadal rivojlantirish uchun ularning kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, tabiiy xom-ashyo resurslaridan foydalanish samaradorligini, iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyatini, shuningdek, hududlarning boshqa qiyosiy ustunliklarini baholashning yagona tizimini joriy etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 1 mayda PQ-4702-son "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi qarori [1] ga muvofiq statistik ko'rsatkichlar va so'rovnomalarni natijalari asosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimi joriy etildi. Bu esa, o'z navbatida

respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish borasidagi muammolarning amaliy yechimi bo'lib xizmat qilmoqda.

Hozirgi global raqobat va iqtisodiy transformatsiya sharoitida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash milliy barqarorlikning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Hududiy iqtisodiyot faqat ishlab chiqarish salohiyati bilan emas, balki investitsiya muhiti, qurilish infratuzilmasi va aholi turmush darajasi bilan ham belgilanadi. Shu bois, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy o'sish dinamikasini tahlil etishda asosiy ko'rsatkichlardan — yalpi hududiy mahsulot (YaHM), qurilish ishlari hajmi, va asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Adabiyotlar sharhi

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish, mintaqalarni kompleks rivojlantirish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni hududiy joylashtirish va boshqarish, mamlakat mintaqalari raqobatdoshligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish singari masalalar O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan S.S.G'ulomov [3], T.M.Axmedov [6], A.M.Sodiqov [4], A.M.Qodirov, Sh.H.Nazarov [9], B.Ro'zmetov [4], Sh.B.Imomov [7], P.Z.Xashimov, F.T.Egamberdiyev, A.A.Qayumov [8], A.J.Siddiqov [10], I.O.Yakubov [11], D.Karimov [1] va boshqalarning ilmiy izlanishlarida keng o'rin olgan.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sikllari nazariyasi iqtisodiyotning evolyutsion rivojlanishining iqtisodiy sub'ektlari kutishiga bog'liq yondashuvga asoslanadi. Taniqli xorijiy olimlar R.Lukas, A.Pigu, S.Fisher, Ch.Nelson va boshqa olimlarning modellarida qo'llanilib, iqtisodiy tizimlarning siklik rivojlanishida kutishlarning rolini nazariy asoslash masalalariga e'tibor qaratishgan. Shu bilan birga, ushbu nazariy va uslubiy tushunchalarning empirik asoslanishi ularga yangi amaliy nuqtai nazardan qarash imkonini beradi. Bundan tashqari, bu siklik rivojlanishdagi fazaviy o'zgarishlarning tabiatiga iqtisodiy agentlarning kutishlarini belgilaydigan ma'lum parametrlarning ta'sir darajasini aniqlash imkonini beradi.

3. Tahlil va natijalar

Xorazm viloyati O'zbekistonning shimoliy-g'arbida joylashgan bo'lib, maydoni 6,1 ming kv km yoki mamlakat hududining 1,4 % ini tashkil etadi. 2022 yil 1-yanvar holatiga viloyat aholisi 1 924,2 ming kishi edi. Hudud 40°–42° shimoliy kenglik va 60°–62° sharqiy uzunliklar orasida joylashgan; shimoldan janubga 280 km, g'arbdan sharqqa 80 km cho'zilgan. Eng shimoliy nuqtasi – Gurlan tumanidagi Olchin qishlog'i yaqinidagi Nuronbobo to'qayi, janubiy nuqtasi esa Tuproqqal'a atrofiga to'g'ri keladi.

Yer tuzilishi ikki qismdan iborat: dengiz sathidan 100–110 m balandlikdagi keng shimoliy tekislik va 120–150 m baland janubiy qism. Iqlimi keskin kontinental bo'lib, yoz kunlari harorat +43 – +45 °C gacha ko'tariladi. Viloyat 11 ta tuman hamda Urganch va Xiva shaharlariga bo'lingan. Urganch shahridagi xalqaro aeroport mamlakat va xorij yo'nalishlari bilan bog'lanishni ta'minlaydi.

Xorazm hududi tarixiy yodgorliklarga boy. Ayniqsa, Xivadagi Ichan-qal'a kompleksi YuNESKO ning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Shahar 1997 yilda 2500 yilligi munosabati bilan xalqaro darajada nishonlangan. Bu yerda Ark, Kaltaminor, Pahlavon Mahmud maqbarasi va Deshanqal'a yodgorliklari mashhur.

Xorazm viloyati milliy davlatchilik va madaniyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan uchun 2003 yilda Jaloliddin Manguberdi ordeniga sazovor bo'lgan. Hudud insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy markazlaridan biri bo'lib, milliy davlatchiligimiz asoslari ham shu yerda shakllangan deb hisoblanadi. «Avesto» kitobi ham Xorazm zaminida yaratilgan bo'lib, undagi «Xorazm» atamasi forscha “xvar” – quyosh va “azm” – o'lka so'zlaridan kelib chiqib, «quyoshli o'lka» ma'nosini anglatadi.[12]

Xorazm viloyati hududlarida sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasining kelgusi besh yildagi istiqbollari hamda har bir tuman va shaharning «o'sish nuqtalari»ni belgilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 04.04.2022 yildagi “2022 — 2026 yillarda Xorazm viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 154-son qarori qabul qilingan [13]. Ushbu qarorda Xorazm viloyatida 2022 — 2026 yillarda yalpi hududiy mahsulot hajmini 1,4 baravarga, sanoat mahsulotlari hajmini 1,4 baravarga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni 1,1 baravarga, xizmatlar hajmini 3,1 baravarga hamda qurilish ishlari hajmini 1,2 baravarga oshirish ko'zda tutilgan.

Ushbu qarorning asosiy mazmun-mohiyati Xorazm viloyatining 2024–2026 yillarda turizm salohiyatini keskin oshirish, hududning xalqaro turistik raqobatbardoshligini kuchaytirish va aholi uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishdan iborat. Qarorga muvofiq, turizmdan tushadigan turistik yig'imlar to'liq viloyatning turizm infratuzilmasiga yo'naltiriladi, xorijiy bozorlarda Xorazm brendini targ'ib qilish va infratuzilmani yaxshilashga sarflanadi. Shu bilan birga, 2025–2026 yillarda viloyatda foydalanishga topshirilgan mehmonxonalarining har bir xonasi uchun davlat subsidiyalari ajratilishi belgilangan: toifasiz mehmonxona uchun 10 mln so'm, 1 yulduzli uchun 15 mln so'm, 2 yulduzli uchun 20 mln so'm, 3–5 yulduzli mehmonxonalar uchun esa alohida qaror asosida yuqori miqdorda qo'llab-quvvatlanadi. Bu tashabbus mahalliy va xorijiy investorlar uchun qo'shimcha rag'batlantirish mexanizmidir.

Qarorda aniq maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan: xorijiy turistlar soni 2024 yilda 1,0 mln kishidan 2026 yilga 1,8 mln kishiga yetkaziladi, ichki turistlar oqimi esa 4 mlndan 5 mln kishigacha oshiriladi. Xizmatlar eksporti hajmi 2024 yildagi 350 mln AQSH dollaridan 2026 yilda 700 mln dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Shuningdek, 2026 yilgacha faoliyati yo'lga qo'yiladigan joylashtirish vositalari soni 41 tadan 65 taga, mehmonxonalardagi qo'shimcha o'rinlar 300 tadan 900 taga, oilaviy mehmon uylari o'rinlari 150 tadan 280 taga va xostellarda 30 tadan 80 tagacha ko'paytiriladi. Turoperator va turagentlar soni esa 15 tadan 35 tagacha oshirilishi belgilangan.

Hujjatda infratuzilmani yaxshilashga katta ahamiyat qaratilgan. Jumladan, Bog'ot tumanidagi “Qal'ajiq qal'a” majmuasiga va Xiva tumanidagi “Qorako'l” ekoturizm obyektiga olib boruvchi yo'llar ta'mirlanadi, Amudaryo qirg'oqlarida zamonaviy plyaj va dam olish zonolari tashkil etiladi. Shu bilan birga, “Ichan qal'a” muzey-qo'riqxonasi hududida tarixiy obidalarni muhofaza qilish, eksponatlarni ko'chirish va yangi ko'rgazmalar uyushtirish vazifalari ham nazarda tutilgan.

Kadrlar tayyorlash va xizmat sifatini oshirish ham alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Xivadagi turizm va madaniy meros texnikumi zamonaviy laboratoriyalar va xorijiy mutaxassislar ishtirokida rivojlantiriladi. Shuningdek, umumiy ovqatlanish

korxonalari xizmat sifati bo'yicha xorijiy tajriba asosida konsepsiya ishlab chiqiladi. Turizm sohasiga hunarmandchilikni integratsiya qilish maqsadida Ichan va Deshon qal'ada suvenir mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish imkoniyatlari kengaytiriladi.

Viloyat turizm salohiyatini xorijda targ'ib qilish uchun ham aniq choralar belgilangan. 2024–2026 yillarda Xorazm delegatsiyalari Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Turkiya, Fransiya, Xitoy, AQSH va boshqa davlatlardagi yirik turistik ko'rgazmalarda ishtirok etadi. Bu orqali viloyat xalqaro turizm xaritasida mustahkam o'rin egallashi ko'zda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, mazkur qaror nafaqat Xorazm viloyati turizm sohasini rivojlantirish, balki uning iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga ham kuchli turtki berishga xizmat qiladi. 2026 yilga qadar kamida 1,8 mln xorijiy va 5 mln mahalliy turist jalb etilishi, xizmatlar eksporti 700 mln dollarga yetkazilishi, mehmonxona va joylashtirish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayishi natijasida hududda minglab yangi ish o'rinlari yaratilishi kutilmoqda. Shu bilan birga, madaniy meros obyektlari muhofaza qilinib, xizmatlar sifatining oshishi va turizmning diversifikatsiya qilinishi Xorazm viloyatining iqtisodiy o'sishi va jahon turizm bozoridagi nufuzini oshirishi ta'minlanadi.

Ijtimoiy komponentni hisobga olsak, innovatsion rivojlanish faqat iqtisodiy o'sishni emas, balki bandlikni, daromadlar o'sishini va ijtimoiy inklyuzivlikni ham o'z ichiga oladi. Mahalla darajasida iqtisodiy inklyuziya modelini shakllantirish va ijtimoiy himoya dasturlarini sanoat rivojlanish bilan bog'lash Xorazm uchun muhimdir. Bu esa innovatsion rivojlanishni axborot-texnologiyalar va sanoat bilan cheklanmaydi, balki mahalla institutlari orqali mayda biznes va bandlik manbalarini kengaytirish shaklini oladi.

Biroq, tahlikalar ham mavjud. Xorazmning iqtisodiy modelida energiya, suv va logistika infratuzilmasiga yuklama oshishi mumkin; malakali ishchi kuchi yetishmasligi investordan tashqari maydonlarga yo'naltirish xavfini keltirib chiqaradi; hududlararo raqobat esa investitsiya oqimlarini cheklashi mumkin. Shu bois innovatsion sanoat loyihalari bilan birga ijtimoiy tizimlar, ta'lim va infratuzilma ham sinxron rivojlanishi lozim.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 24 235,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,8 % ni tashkil etdi.[14]

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2010–2024 yillar oralig'ida Xorazm viloyati hamda O'zbekistonning barcha hududlarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi hududiy mahsulot hajmi izchil o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Xorazm viloyatida bu ko'rsatkich 2010 yildagi 2 021,8 ming so'mdan 2024 yilda 25 452,4 ming so'mga yetgan, ya'ni o'sish 12,6 baravarni tashkil etgan. Bu natija viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmining ortishi, xizmatlar sohasi ulushining kengayishi hamda kichik biznes faoliyatining jadallashuvi bilan izohlanadi.

Biroq, taqqoslash uchun, Navoiy viloyatida aholi jon boshiga YAIM hajmi 108 108,6 ming so'mni tashkil etib, Xorazmdagidan qariyb to'rt baravar yuqori. Bu farq hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tuzilma, tabiiy resurslar, sanoat diversifikatsiyasi va investitsion salohiyat darajalaridagi tafovutlar bilan izohlanadi. Xorazm viloyati o'sish sur'atlari

bo'yicha respublika o'rtacha ko'rsatkichlariga yaqinlashib bormoqda, ammo yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va innovatsion iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtirish zarur.

1-jadval

Hududlarda aholi jon boshiga YHM mahsulot hajmi (yillik), joriy narxlarda, ming so'm [15]

Hududlar	2010	2015	2020	2024
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1572,1	4693	13356,1	22645,8
Andijon viloyati	1937,7	5445,9	13497,4	26409
Buxoro viloyati	3113,4	7900,6	18248,5	34729,6
Jizzax viloyati	2137,1	5904,9	14502,5	28281
Qashqadaryo viloyati	2857,2	6757,6	12343,1	22405,1
Navoiy viloyati	5312,2	12156,8	51522,4	108108,6
Namangan viloyati	1711,3	4873,2	11522,4	22238,7
Samarqand viloyati	2235,9	5770,5	12160	23481,3
Surxondaryo viloyati	1789,3	5273,6	10384,8	18670
Sirdaryo viloyati	2576,1	7180,5	16735,1	30359,2
Toshkent viloyati	3191,8	8801,9	23963,2	47526,1
Farg'ona viloyati	1970,2	5464,1	11466,8	22259,5
Xorazm viloyati	2021,8	5759,6	12517,6	25452,4
Toshkent shahri	5236,9	14306,1	40679,2	91376,6

2024 yilda Xorazmda jon boshiga YAHM Samarqand (23 481,3 ming so'm) va Namangan (22 238,7 ming so'm) viloyatlaridan biroz yuqori, ammo Toshkent viloyati va poytaxt ko'rsatkichlaridan ancha past. Umuman olganda, jadval tahlili Xorazm viloyatining 2030 yilgacha innovatsion, sanoat va raqamli iqtisodiyotga yo'naltirilgan rivojlanish strategiyasini jadallashtirish zarurligini ko'rsatadi, bu esa aholi daromadlari o'sishi va hududiy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omilidir.

2-jadval

Hududlarda aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi, ming so'm [15]

Hududlar	2010	2015	2020	2024
O'zbekiston Respublikasi	2192,8	5410,6	12595,9	24111,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1498,9	3908	9815,9	16858
Andijon viloyati	1838,1	4835	11237,6	21926,3
Buxoro viloyati	2524,4	6411,6	15338,7	27508
Jizzax viloyati	1810,7	4809,6	11363,9	19435,1
Qashqadaryo viloyati	1896,4	4642,7	10607	18473,5

Navoiy viloyati	3881,6	8761,4	20916,9	38112,3
Namangan viloyati	1566,7	4113,2	9731,5	16849
Samarqand viloyati	2029	4631	10827,9	19215,4
Surxondaryo viloyati	1718,4	4560,8	10091,2	17880
Sirdaryo viloyati	2215,1	5813,9	11349,5	19036,5
Toshkent viloyati	2433,3	6123,7	13717,7	25123,3
Farg'ona viloyati	1723	4418,3	9223,5	19119,9
Xorazm viloyati	2105,3	5052,2	12674	23410,8
Toshkent shahri	4505,9	10614,4	26334,9	60594,4

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2010–2024 yillar davomida Xorazm viloyati va umuman O'zbekiston bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan umumiy daromadlar hajmi barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Xorazm viloyatida bu ko'rsatkich 2010 yildagi 2 105,3 ming so'mdan 2024 yilda 23 410,8 ming so'mga oshib, 11,1 baravar o'sish qayd etilgan. Bunday o'sish hududda iqtisodiy faoliyatning jonlanishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati bilan bevosita bog'liq. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy o'rtacha daromad 24 111,9 ming so'mni tashkil etgani Xorazm viloyatining respublika miqyosida o'rtacha pozitsiyada ekanini ko'rsatadi. Eng yuqori daromad Toshkent shahriga to'g'ri kelib, 60 594,4 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, Navoiy viloyati 38 112,3 ming so'm bilan ikkinchi o'rinda. Bu hududlarda yuqori texnologiyali sanoat, konchilik va ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi daromadlar darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xorazm viloyati ko'rsatkichlari Buxoro (27 508 ming so'm) va Toshkent viloyati (25 123,3 ming so'm)dan past, biroq Samarqand, Sirdaryo va Jizzax viloyatlariga yaqin darajada shakllangan.

Bu natijalar Xorazmda iqtisodiy faollik, sanoat kooperatsiyasi va xizmatlar sektorini kengaytirish orqali aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari mavjudligini anglatadi.

4. Xulosa

Innovatsiya jarayonining murakkab va nochiziqli tabiati haqidagi ilmiy qarashlar "hududiy innovatsion tizimlar" (MIT) konsepsiyasini shakllantirdi. Ushbu yondashuv texnologik yangiliklar bilan birga ularning ijtimoiy-institutsional muhitdagi o'zaro ta'siri va tarmoq hamkorligiga e'tibor qaratadi. "Uchlik spirali" modeli universitet–biznes–davlat integratsiyasining ahamiyatini belgilab, O'zbekistonda so'nggi yillarda qayta tiklanuvchi energetika va agrotexnologiyalar bo'yicha qo'shma loyihalarda namoyon bo'lmoqda. Adabiyotlarda MIT evolyutsiyasining uch bosqichi ajratiladi: 1990–2009 yillarda texno-iqtisodiy yondashuv ustuvor bo'lib, xususiy kapital ishtiroki past bo'lgan; 2010–2018 yillarda tizimli boshqaruv va ixtisoslashgan jamg'armalar shakllangan; 2019–2024 yillarda esa aqlli ixtisoslashuv, missiyaga yo'naltirilgan siyosat va barqaror innovatsiyalar ustuvorlik kasb etdi. Bu bosqich "yashil iqtisodiyot" va raqamli transformatsiya dasturlarida aks etmoqda.

Namangan, Buxoro va Surxondaryoda past ko'rsatkichlar infratuzilma va malakali kadrlar yetishmovchiligi bilan izohlanadi. Bu nomutanosibliklarni kamaytirish uchun

smart-ixtisoslashuv, biznes-inkubatorlar hamda “Hududiy innovatsion samaradorlik indeksi” dan foydalanish taklif etiladi.

Innovatsion rivojlanish mexanizmi ilmiy-tadqiqot bazasi, inson kapitali va tijoratlashtirish jarayonlaridan tashkil topib, 264 ta ilmiy tashkilotni qamrab oladi. Ularda xodimlar sonining 0,7 foizga o'sishi salohiyatning markazlashganligini ko'rsatadi. Toshkentda mexanizm to'laonli ishlayotgan bo'lsa, Navoiy, Andijon va Samarqandda texnologik yangilanish faollashgan, Xorazmda ilmiy salohiyatni kuchaytirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/23_Karimov_D.pdf
2. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/iqtisodiy-tsikl-uz>
3. Gulyamov S.S. Modelirovaniye sotsial'no-ekonomicheskogo razvitiya territorial'no-promyshlennyykh kompleksov. -T.: Fan, 1980. - 194 s.;
4. Sadykov A.M. Osnovy regional'nogo razvitiya: teoriya, metodologiya, praktika // Monografiya. T.: IQTISOD - MOLIYA, 2005. - 280 s.;
5. Ruzmetov B. Kompleksnoye razvitiye regiona v usloviyax uglubleniya ekonomicheskix reform. Avtoref. dis....dokt. ekon. nauk. -T.: 1998;
6. Axmedov T.M. Regulirovaniye territorial'noy organizatsii proizvoditellykh sil i kompleksnogo razvitiya regionov Uzbekistana. -T.: FAN, 1992;
7. Imamov Sh.B. Regulirovaniye territorial'nogo razvitiya ekonomiki Uzbekistana: Avtoref. dis....dokt. ekon. nauk. -T.: 1998;
8. Qayumov A.A., Nazarova X.M., Egamberdiyev F.T., Yakubov O'.Sh. Mintaqaviy iqtisodiyot. -T.: Universitet, 2004;
9. Nazarov Sh.H. O'zbekiston mintaqalari raqobatdoshligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. -T.: 2016. - 5 b.;
10. Siddiqov A.J. Iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida sanoat ishlab chiqarishning mintaqaviy muammolari (Qashqadaryo viloyati misolida) kandidatlik dissertatsiyasi avtoreferati. -T., 2006;
11. Yakubov I.O. Mintaqaviy iqtisodiyot. -T.: TDIU, 2016.
12. <https://gov.uz/oz/xorazm/pages/about>.
13. <https://lex.uz/ru/docs/5939831>.
14. AICT. (2024). Uzbekistan Digital Economy Overview and Vision 2030. Tashkent: AICT.
15. www.stat.uz

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

